



**O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY
- AXLOQIY TARBIYALASHDA OILANING O'RNI**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Milnorov Xusniddin Xushmatovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika

fakulteti pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

Toxirova Xadicha

ANNOTATSIYA *Hozirgi vaqtdagi dolzarb mavzulardan biri - bu mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, jismonan hamda ruhan barkamol shaxsni shakllantirish hisoblanadi.*

KALIT SO'ZLAR *Qadriyat, oila, tarbiya, tarix, ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, o'zlikni anglash, milliy g'oya.*

ANNOTATION *One of the current pressing issues is educating the youth of our country in a spirit of patriotism, respect for our national traditions and values, and forming a physically and spiritually mature person.*

KEYWORDS *Values, family, upbringing, history, spirituality, spiritual and moral upbringing, self-awareness, national idea.*

АННОТАЦИЯ *Одной из актуальных проблем современности является воспитание молодежи нашей страны в духе патриотизма, уважения к национальным традициям и ценностям, формирование физически и духовно зрелой личности.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА *Ценности, семья, воспитание, история, духовность, духовно-нравственное воспитание, самосознание, национальная идея.*

KIRISH

– Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at



namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq umuminsoniy qadriyatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanib, uning asosiy maqsadi - o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, ko'p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishga keng sharoitlar yaratilmoqda. Ularning rivojlanishiga e'tibor berilmoqda.

Davlat ta'lim standartlarida qadriyatlar haqidagi bilimlar bugun ta'lim muddati mobaynida va uning hamma shakllarida berilishiga alohida ahamiyat berilgan. Shunday ekan, har bir o'quvchini ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda badiiy adabiyotni o'qishga ishtiyoq uyg'otish, qo'shiq aytish, raqs tushish, rasm chizish malakalarini tarkib toptirish, rang tasvirlar, musiqa asari, me'morchilik, teatr to'g'risida tushunchalar hosil qilish, tarixga qiziqtirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda adabiyot darsi davr bilan hamnafas bo'lishi zarur. Adabiyot darsi o'z fani asoslarini o'rgatish bilan birga yoshlar uchun hayot darsiga aylanishi, ularni hayotga tayyorlashi lozim. Hayotni o'rganishda adabiyot yoshga eng yaqin yordamchi bo'lishiga erishish lozim. Yosh adabiyot fanida adabiy asarlarni o'rganish orqali milliy qadriyatlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

ASOSIY QISM

Millatning o'tmishi, buguni va kelajagining muhim omili sifatida qadriyatni belgilashimiz boisi ham shu. Milliy qadriyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Umuminsoniy qadriyatlar ko'lami va mazmuni jihatidan chuqur va keng qamrovli bo'lib, barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad intilishlarini o'zida mujassamlashtirgan. Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar bilan qanchalik ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning rivojlanishiga, ommalashishiga keng imkoniyat yaratadi. "Qadriyatlar", "milliy g'oya", "o'zlikni anglash", "milliy g'urur"



kabi atamalar kishiga oila muhitida ona allasi bilan birga singadi. O'z yurtiga bo'lgan ehtirom, ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimo hurmat ko'rsatish va bir nechta ijobiy fazilatlar anglatilib boriladi. Oilada olingan tarbiya keyinchalik shaxsning butun umri davomi oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin, poydevor vazifasini o'taydi. Har bir ota-ona o'z burchini anglagan holda oila mustahkamligini ta'minlaydigan hamma xususiyatlarni to'liq e'tiborga olishi va o'z vazifalarni ado etmog'i lozim.

Oilada ma'naviy - axloqiy tarbiya bu bolalarga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatish va rivojlantirish jarayonidir. Bu bolalarda halollik, hurmat, mas'uliyat, hamdardlik kabi ijobiy qadriyatlarni yoshligidan singdirish va izchil modellashtirish va mustahkamlash orqali bu qadriyatlarni mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Oila bolaning axloqiy va ma'naviy rivojlanishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki ota onalar tarbiyalovchi va qo'llab quvvatlovchi muhitni ta'minlash, aniq taxminlar va chegaralarni ta'minlash va ijobiy xulq- atvorni modellashtirish orqali o'z farzandlariga butun hayoti davomida ularni boshqaradigan kuchli ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

Milliy qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga singdirish uchun umumxalq bayramlarida, xasharlarda yoshlarimiz ishtirokini kengaytirib, ularni ko'proq jalb etish maqsadga muvofiq. Milliy an'ana, urf-odatlarimiz xalqimiz hayotining mazmuniga, kundalik turmush tarziga singib ketgan. Buni yoshlarga to'g'ri yetkazish yoshlarning o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, dunyoni aslidek tushunish va eng asosiysi, inson ma'naviy qiyofasini mukamallashuviga olib keladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umuminsoniy qadriyatlar zaminimizda yashaydigan barcha millat va elatlarning manfaatlarini himoya qiladi.

Bunda, oilada beriladigan tarbiya yoshlarimizning o'zligini anglashiga, insonparvarlik tamoyili asosida kamol topishiga, milliy qadriyatlarga hurmat, muhabbat ruhida tarbiyalanishiga va ongining o'sishiga, zamonaviy dunyoqarashining shakllanishiga asos bo'la oladi.



Qadriyatlar oila uchun muhimdir, chunki ular himoya, yo‘l-yo‘riq, mehr va qo‘llab-quvvatlash manbai sifatida poydevor yaratadi. Oilaviy qadriyatlarni singdirish bolalarni kelajakda zararli qarorlar qabul qilishdan himoya qilishi va yo‘naltirishi mumkin bo‘ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 296-304.
2. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo 'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 305-312.
3. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
4. Anatolyevna, Boyarkina Yulia, Sokhibov Akram Rustamovich, and Milinorov Khusniddin Khushmatovich. "EDUCATIONAL TOURISM AS A POTENTIAL FOR THE DEVELOPMENT OF THE REGION." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.6 (2024): 185-189.
5. Milinorov, XX va DN Eshmuratova. "O'ZBEK URNAVALARI, MAROSIMLARI VA ODAMLARINI SHAXS TARBIYO'TIDAGI O'RNI". *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.